


<https://natscience.jdpu.uz/>



Journal of  
**Natural science**  
№ 1(10) 2023

Chemistry  
Biology  
Geographyu

<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Масъул котиб- Ш.Урозов</p>	<p><b><u>Бош муҳаррир</u></b> Худанов Улугбек Ойбутаевич, доц., к.т.н.</p> <p><b><u>Тахририят аъзолари:</u></b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Яхшиева З- к.ф.д., профессор ЖДПУ</li><li>2. Шилова О.А.-к.ф.д., профессор. И.В. Гребенщиков номидаги Россия ФА Силикатлар кимёси институти</li><li>3. Маркевич М.И. -ф.м.ф.д.. профессор. Беларусия ФА</li><li>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Нидерландия</li><li>5. Анисович А.Г.- ф.м.ф.д..профессор. Беларусия ФА</li><li>6. Кодиров Т- к.ф.д., профессор ТКТИ</li><li>7. Абдурахмонов Э– к.ф.д., профессор СамДУ</li><li>8. Насимов А-к.ф.д., профессор СамДУ</li><li>9. Сманова З.А.-к.ф.д., профессор ЎзМУ</li><li>10. Мавлонов Х-б.ф.д.,проф ЖДПУ</li><li>11. Қутлимурудова Н.Х-к.ф.д., доц. ЎзМУ</li><li>12. Нуралиева Г.А.-доц.ЎзМУ</li><li>13. Султонов М.М.-к.ф.д.,доц ЖДПУ</li><li>14. Худанов У.О. – доц., ЖДПУ</li><li>15. Муродов К.М.- доц. СамГУ</li><li>16. Абдурахмонов Ғ- доц ЎзМУ</li><li>17. Янгибоев А-ф.д.(кимё)(PhD), доц ЎзМУ</li><li>18. Хакимов К –г.ф.н., доц. ЖДПУ</li><li>19. Азимова Д-б.ф.н. ЖДПУ</li><li>20. Гудалов М- доц ЖДПУ</li><li>21. Орзикулов Б.- ф. д. (кимё)(PhD), ЎзМУ</li><li>22. Хамраева Н-доц. ЖДПУ</li><li>23. Рашидова К-доц ЖДПУ</li><li>24. Мурадова Д- доц ЖДПУ</li><li>25. Инатова М.С.-доц ЖДПУ</li></ol>
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика университети</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика университети Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

<https://natscience.jdpu.uz>

**JIZZAX VILOYATI ICHKI SUVLARINING HOSIL BO'LISHIDA IQLIMIY OMILLARNING O'RNI**

*J.E Xolmirzayev., A.M.Nazarmatov, F.Q.Qarshiboyev., J.O'.Safarov*

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**Аннотация:** Ichki suvlarning hosil bo'lishida iqlimiy omillar muxim ahamiyatga ega bo'lgan faktorlardan hisoblanib, ichki suvlarning ko'payish yoki kamayish rejimi bevosita iqlimiy omillarga bog'liqligi maqolaning asosiy mazmunini tashkil etadi.

**Калит сўзлар:** Ichki suvlar, daryolar, ko'llar, tabiiy va antropogen gidrografik obektlar, iqlimiy omillar va ularga antropogen ta'sir, globl iqlim o'zgarishi kabilar.

**Аннотация:** Климатические факторы являются важными факторами формирования внутренних вод, и основное содержание статьи заключается в том, что режим увеличения или уменьшения внутренних вод напрямую зависит от климатических факторов.

**Ключевые слова:** внутренние воды, реки, озера, естественные и антропогенные гидрографические объекты, климатические факторы и антропогенное воздействие на них, глобальное изменение климата и др.

*Suvning geografik qobiqdgi ishini miqdor jihatdan quyosh radiyatsiyasi bilan taqqoslasa bo'ladi, sifat jihatdan esa uning o'rnini hech narsa bosa olmaydi.*

*V.I.Vernadskiy*

Bugungi kunda jahonda suv taqchilligi muammosi tobora keskinlashib borayotgan dolzarb muammolardan biri bo'lib bormoqda. Dunyo axolisi sonining ortib borishi, hayot farovonligi darajasini yaxshilashga intilish eng avvalo iste'mol qilinayotgan suv xajmlarining ekstensiv o'sishiga olib kelmoqda. Jaxonda 1980 yildan boshlab suvdan foydalanish darajasi yiliga o'rtacha 1 %ga o'sib bu tendentsiya 2050 yilgacha ham o'rtacha o'sish suratini saqlab qolishi kutilmoqda, bu esa mavjud xolatga nisbatan 20-30 % ga ko'p demakdir [2].

Jizzax viloyatida ham suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning ko'plab nazariy-meodologik, uslubiy va iqtisodiy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha qator, ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: Hususan, suv resurslaridan foydalanishni samarali tashkil etish, suvdan foydalanish xarajatlarini hamda tariflarini maqbul tarzda shakllantirish; suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga moliya mexanizmining umumiy ta'sirini aniqlash va uning ta'sirchanligini kuchaytirish; moliya mexanizmi aloxida tarkibiy qismlarining suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishdagi ta'sirini baxolash kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqd.

Bizga ma'lumki suv resurslarining hosil bo'lishida quyidagi tabiiy-geografik omillar ta'sir etadi: havzaning geografik o'rni, geologik tuzilishi, relyefi, iqlim sharoiti, tuproq va o'simlik qoplami, gidrografik sharoiti (muzlik, ko'l, botqoqlik) kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Iqlimning daryolarning tuyinishidagi ahamiyati va ularning suv rejimiga ta'sirini iqlimshunos olim A.I.Voeykov ta'biri bilan aytganda "Daryolar o'z havzalari iqlimining maxsulidir", degan ibora o'z kuchini yo'qotmagan [1].


Jizzax viloyatining iqlimi qishi sovuq, yozi issiq va quruq bo'lgan keskin kontinental mo'tadil iqlim tipiga kiradi. Jizzax viloyati O'rta Osiyoning cho'l, chalacho'l va bo'z tuproqlar mintaqasida joylashgan bo'lib, viloyat hududining bir qismi Sirdaryo viloyati iqlimi sharoitlari bilan qo'shib ketgan. Lekin, Turkiston, Nurota, Molguzar tizmalari va ularning yonbag'irlari tog' oldi tekislik qismlaridagi iqlimi bilan o'ziga xos murakkab sharoitga egadir. Bu birinchidan, viloyat hududining janub va sharq qismlari tog' bilan o'ralganligi bo'lsa, ikkinchidan, uning shimol va g'arb tomonlari ochiq tekisliklarga egaligi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham hududga shimoliy sovuq Arktika havo massalari yil davomida kirib keladi. Undan tashqari janubdan issiq tropik havo massalari kirib, qishning sovuq havosini bir oz yumshatib turadi. Hamma joyda bo'lganidek, Jizzax viloyatida ham joyning balandligi ortib borishi bilan havo harorati pasayib boradi. Bu jarayonning aksnicha yog'inlarning ko'payishi tog'li sharoitda odatda balandlikni ortishi bilan bog'liq, lekin, Jizzax viloyatida uning ta'siri kam. Yozda havo haroratining eng yuqori ko'rsatkichi iyun – avgust oylari oralig'ida kuzatiladi (47 – 48 °C). Qishda esa eng yuqori ko'rsatkich - 33 °C gacha yetadi. Viloyatning o'rtacha yillik havo harorati 10 °C - 14°C atrofida bo'ladi. Viloyatda sovuqsiz kunlar davri 200 – 220 kun bo'ladi. Lekin, viloyatning shimolida bu ko'rsatkich biroz kamayadi. Oxirgi bahorgi sovuq tog'oldi zonalarida 22 – 28 oktyabrga to'g'ri keladi. Jizzax viloyati hududida atmosfera yog'inlarining o'rtacha yillik ko'rsatkichi turli meteorolgik stansiyalar ma'lumotlari bo'yicha 276 mm dan 446 mm gacha yetib, yog'inning asosiy qismi qish va bahor oylariga to'g'ri keladi. Viloyat hududida yoz – kuz oylarida eng kam yog'in tushadi. Yozning nisbiy havo namligi 26 - 27 foizdan, 46 – 47 foizgacha etadi. Shuning uchun bu davrda tuproq yuzasidan bug'lanish 450 – 460 mm gacha etib, bug'lanish yillik yog'in qatlamidan bir necha barobar ortiqdir.

Viloyatning tekislik qismi yer osti suvlari yuzada joylashgan. Tog'oldi tekisliklarida kuchli bug'lanish natijasida tuproq sho'rlangan. Tuproq harorati bir metr chuqurlikkacha yil davomida turli darajada isiydi. Yozda (VI – VII) tuproq yuzasi ba'zi yillarda 29 – 60 °C dan 65 – 68°C (o'rtacha oylik) gacha qiziydi. Ba'zi yillarda qish oylarida ya'ni, dekabr – fevral oylarida tuproqning 40 sm chuqurlikkacha muzlashi kuzatilgan.

Viloyat hududida qor qoplarning qalinligi 15-30 sm, tog‘li hududlarning ayrim joylarida 1 m va undan katta qiymatlarga etadi. Bu qorlar mart oyida, ba‘zan, balandroq joylarda esa may oyigacha erimay turadi. Yil bo‘yi shamol ko‘proq shimol, shimoli-sharq va shimoli-g‘arbdan esadi. Viloyatning janubi-sharqiy qismidagi (G‘ubdintog‘ va Qaroqchi) tog‘lar atrofida shamol tezligi ba‘zan sekundiga 28 m gacha etadi.

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, eng katta oylik yog‘in miqdori 343,5 m balandlikdagi Lalmikor meteorologik stnsiyasida kuzatilgan. Bu meteorologik stnsiyada eng katta oylik yog‘in miqdorining qiymati mart oyiga to‘g‘ri kelib, u 72,8 mm tashkil etadi. Viloyatdagi eng kichik oylik yog‘in miqdori G‘allaorol meteorologik stnsiyasida kuzatilgan. Bu meteorologik stnsiyada kuzatilgan oylik yog‘in miqdori avgust oyiga to‘g‘ri kelib, uning qiymati esa 1,1 mm ni tashkil etadi.

Yuqorida Jizzax, Do‘stlik, G‘allaorol, Lalmikor, Baxmal va Yangiqishloq meteorologik stnsiyalarida kuzatilgan havo haroratlari ma‘lumotlari asosida o‘rtacha oylik havo haroratlarning taqsimlanish grafigi chizildi (3-rasm).



3-rasm. Jizzax viloyatida joylashgan meteostansiyalarda kuzatilgan o‘rtacha ko‘p yillik havo harorati ( $^{\circ}\text{C}$ ) ning yil ichida taqsimlanishi

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, viloyat hududida katta havo harorati Yangiqishloq meteorologik stnsiyasiga to‘g‘ri keladi. Unda kuzatilgan havo haroratining o‘rtacha kunlik maksimal qiymati  $29,4^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etadi.

Ma'lumki, viloyat iqlim sharoitining o'zgarishi har yili turli darajada bo'ladi. Viloyat iqlim sharoitini 2000 – 2013 yillarda Jizzax, Do'stlik, G'allaorol, Lalmikor, Baxmal va Yangiqishloq meteorologik stansiyalarda kuzatilgan oxirgi 13 yillikdagi havo harorati va yog'in miqdorlari ma'lumotlari asosida o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar asosida viloyat hududidagi meteorologik stansiyalarda qayd etilgan yillik yog'in miqdorlarining yillararo o'zgarishi turlicha o'zgarganligini kuzatish mumkin.. Grafik viloyatdagi oxirgi 13 yillikda yog'in miqdorining o'zgarishini tahlil qilish imkonini beradi. Viloyatda yog'in miqdorining eng katta qiymati 2002 yili (632,3 mm) Baxmal meteorologik stansiyasida kuzatilgan. Yog'in miqdorining eng kichik qiymati Do'stlik meteorologik stansiyasida 2006 yil (140,6 mm) kuzatilgan. Viloyatning markazi Jizzax shahridagi Jizzax meteorologik stansiyasida esa o'sha yili 311,2 mm ni tashkil etgan. G'allaorol meteorologik stansiyasida esa o'sha yili 275,6 mm ni tashkil etgan. Viloyat hududida joylashgan Jizzax, Do'stlik, G'allaorol, Lalmikor, Baxmal va Yangiqishloq meteorologik stansiyalarda kuzatilgan havo harorati va yog'in miqdorlari ma'lumotlari asosida viloyatning iqlim sharoiti o'rganildi. Ichki suvlarning hosil bo'lishi bevosita iqlim sharoitiga bog'liq hususan, joyning geografik o'rniga bog'liq bo'lib, uzoq yillar uchun xos bo'lgan quyidagi omillar bilan aniqlanadi: yog'inlarning miqdori, yog'ish jadalligi, yog'in miqdorining yil ichida taqsimlanishi, qor qoplaminin qalinligi va uning suvliligi, havo harorati va namlik darajasi, shamol va uning tezligi, yo'nalishi. Ichki suvlarning hosil bo'lish jarayonida daryo va ko'llarning to'yinish manbalari, va, umuman uning gidrologik rejimi havzasining iqlim sharoitiga bog'liqdir. Daryo havzasida hosil bo'lgan suv miqdori unga yoqqan yog'in miqdori bilan aniqlansa, havzada yo'qotiladigan suv miqdori, ya'ni bug'lanish havo harorati, namlik va shamol bilan aniqlanadi. Ikkinchi tomondan, havo haroratining ko'tarilishi daryo havzasidagi qor qoplami va muzliklar erishini, natijada, daryoga yanada ko'proq suv qo'shilishini ta'minlaydi.

Jizzax viloyati halq xo'jaligi turli tarmoqlarini rivojlantirish suv resurslari bilan ta'minlanganligiga bog'liqdir. Viloyat hududida qadimdan suv tanqisligi mavjud. Buning asosiy sababi viloyatning yirik suv manbalari, jumladan Sirdaryo va Zarafshondan ancha uzoqda joylashganligidir. Suv resurlaridan samarali foydalanish mamlakatimiz xalq xo'jaligi ko'pgina tarmoqlarining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan xalq xo'jaligini rivojlantirishda suvning ahamiyati juda kattadir [3].

Ma'lumki, arid iqlimli hududda joylashgan viloyat hududi qishloq xo'jaligining rivojlanishi sug'orma dehqonchilikka asoslangan. Shu tufayli viloyatda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va qishloq xo'jaligi ekin maydonlari mahsuldorligini ko'tarishda suv resurslarining o'rne juda muhimdir. Mazkur iqlimiy omillarning ta'siri natijasida Jizzax viloyatida shakllangan suv

manbalari yetarlicha ta’minlanmagan. Viloyatda barcha umumtabiiy geografik sharoitidan kelib chiqib ikkita yirik Sangzor va Zominsuv daryosi va bir qancha yozda qurib qoluvchi myd soy-buloqlar shakllangan bo’lib, bu esa aholining iste’mol darajasi hamda halq xo’jaligining 4/1 qismiga ham yetmaydi [4].

**Jizzax viloyati hududidagi daryolar havzalari, ulardagi irmoqlar soni va uzunliklari**

Daryo havzasi, irmoqlari soni, uzunligi		Uzunliklar oraliqlari, km							Jami
		<10	10-15	16-20	21-30	31-50	51-75	>75	
Zominsuv	irmoqlar soni	78	10	2	4	-	1	-	95
	umumiy uzunligi	209	125	33	106	-	58	-	531
Sangzor	irmoqlar soni	308	13	7	9	1	-	1	339
	umumiy uzunligi	626	161	120	210	36	-	198	1351
Boshqalar	irmoqlar soni	261	10	9	11	3	-	-	294
	umumiy uzunligi	505	125	160	277	97	-	-	1164
Hammasi	irmoqlar soni	647	33	18	24	4	1	1	728
	umumiy uzunligi	1340	411	313	593	133	58	198	3046

Mazkur iste’molni qoplash maqsadida Sirdaryo daryosidan Janubiy Mirzacho’lkanali va Zarfshon daryosidan Tuyatortar kanali olib kelingan.

Viloyatning iqlimi, yer maydoni kabi tabiiy geografik xususiyatlari hali kelajakda ko’plab istiqbolli rejalarni amalga oshirish mumkinligini ko’rsatadi. Chunki qishloq-xo’jaligida yetishtiriladigan maxsulotlar salmog’i respublikamiz iqtisodiyotida muxim o’rin tutadi. Shuning uchun xam bugungi kunda sug’oriladigan tuproqlarning unumdorligini oshirish, qishloq-xo’jaligida asosiy ekinlar g’o’za va donli ekinlarning mo’ljaldagi xosilini yetishtirish bilan bir vaqtda tuproq unumdorligini saqlab qolish, uni ilmiy asosda boshqarish va muxofaza qilish yo’llarini ishlab chiqish davr talabidir[5]. Biz bugungi va ertangi vatanimizning gullab yashnashi, ozod va obod vatan qurish yo’lida tinmay mehnat qilishimizda be’vosita va bavirusita qishloq xo’jaligining suv va meliorativ yerlar xosildorligini o’rni kattadir. Biz kelajakda suv resurslarining holadi iqlimiy omillarga bevosita bog’liq ekanligini o’quvchilarga va boshqa barcha ommaga turli yo’llr bilan tushuntirish targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borishimiz kerak. Iqlimdagi

o'zgarishlar esa suv havzalari manbalariga ta'sir etadi. Iqlimning normal jarayoniga es bevosita antropogen ta'sir ham muhim ta'sir etadi jumaladan texnokratik jarayonlar, sanoat-karxonalari kabi ko'plab ekologik ta'sirlar shular jumlasidandir. Kelajakda iqlim o'zgaruvchanligi va uning oldini olish, global iqlimiy jarayonlarga befarq bo'lmaslik oldimizda turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Rasulov A.R., Hikmatov F.H., Aytboev D.P. *Gidrologiya asoslari*. -Toshkent: Universitet, 2003.
2. (Қурбанов Д.Р. Ўзбекистонда сув ресурсларидан оқилона ва самарали фойдаланишни молиявий дастаклар асосида рағбатлантиришни такомиллаштириш. Т:-2021.Монография).
3. Jumanazar, J. X. (2020). ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИНИНГ ТАБИИЙ СУВ ҲАВЗАЛАРИ ВА УЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШНИНГ ГЕОГРАФИК ЖИҲАТЛАРИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
4. Holmirzayev, J., & Qosimov, N. (2021). Jizzax viloyati ichki suvglariga antropogen omillarning ta'siri. *Журнал естественных наук*, 1(2).
5. Холмирзаев, Ж. Э. (2021). HYDROGRAFIK TARMOKLARNING TERRITORIES VIDELANISH REGULARITIES (GIZZAH TORIDA). *Экономика и социум*, (4-2), 648-654.
6. Холмирзаев, Ж. Э., & Соибназаров, Д. (2021). СУВ РЕСУРСЛАРИНИНГ ГЕОГРАФИК ТАРҚАЛИШИ ВА ГЕОКИМЁВИЙ ТАРКИБИ ХАҚИДА МУЛОҲАЗАЛАР (Жиззах вилояти мисолида). *Журнал естественных наук*, 1(4).